


5-Mavzu: AUDITORLIK KASBIGA MALAKAVIY VA AXLOQIY TALABLAR

- 1. Auditorlik kasbiga malakaviy talablar**
 - 2. Auditorlik tashkiloti va auditorlarning mustaqilligi.**
 - 3. Auditor axloqi (etikasi).**
- 

1. Auditorlik kasbiga malakaviy talablar

- ▣ Auditorlarning yuqori darajadagi kasb mahorati o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvlar va professional xizmatlar eng yuqori darajada amalga oshirilishining garovi hisoblanadi.
- ▣ Aynan mana shuning uchun ham Moliya Vazirligi tomonidan auditorlik faoliyati bilan shug'ullanishga yuqori talablar o'rnatilgan.

- O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2018-yil 14-noyabrdagi 144-son buyrug‘iga 1-ILOVA **“Auditor malaka sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi”** NIZOM O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi **Qonuni** va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi PQ-3946-son “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **qaroriga** muvofiq auditor malaka sertifikatini berish, qayta rasmiylashtirish, bekor qilish, amal qilishini uzaytirish va tugatish tartibini belgilaydi.

- Auditor malaka sertifikatini olgan yilning keyingi yilidan boshlab har yili 40 soatlik malaka oshirish dasturi bo'yicha malaka oshirish kurslarini o'tishi shart.
- Talabgor (auditor) xalqaro buxgalter sertifikatiga ega bo'lganda malaka sertifikatini olish va amal qilish muddatini uzaytirish malaka imtihonini topshirmasdan amalga oshiriladi.

Malaka imtihonini topshirish uchun talabgor quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak:

1

- oliy ma'lumotga, oliy ta'lim muassasini bitirganidan so'ng oxirgi o'n yil ichida kamida uch yillik audit va buxgalteriya hisobi sohasida yoxud shu sohalarda oliy ta'lim muassasalarida dars berish bo'yicha amaliy ish stajiga (shu jumladan, o'rindoshlik asosida) ega bo'lishi;

2


- "buxgalteriya hisobi" va "audit" mutaxassisliklari bo'yicha magistr diplomiga va auditorlik tashkilotida bir yildan kam bo'lmagan amaliy ish stajiga (shu jumladan, o'rindoshlik asosida) ega bo'lishi;

3


- fanning iqtisodiy tarmoqlari sohasida ilmiy darajaga ega bo'lishi.

- Malaka imtihonini o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan komissiya raisini hisobga olgan holda to‘rt kishidan kam bo‘lmagan tarkibda malaka imtihoni komissiyasi tashkil qilinadi.
- Malaka imtihoni komissiyasi tarkibiga Vazirlik xodimlari va auditorlarning respublika jamoat birlashmasi vakillari kiritiladi.


Talabgor malaka imtihonini topshirish uchun quyidagi hujjatlarni Vazirlikka taqdim etadi:



- malaka imtihonini topshirishga ruxsat berish to'g'risidagi ariza;



- pasport nusxasi (chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun — yashash uchun guvohnomasining nusxasi);



- oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomning yoki ilmiy darajasi to'g'risidagi hujjatning yoxud vakolatli davlat organining xorijiy ta'lim muassasasida olingan oliy ma'lumot yoki ilmiy darajasi to'g'risidagi hujjatning nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish) guvohnomasining nusxasi;

g)

- xalqaro buxgalter sertifikatini mavjud bo'lganda (nusxasi olinib, asli qaytariladi) yoxud ushbu hujjatni bergan muassasa tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

d)

- mehnat daftarchasining nusxasi (mehnat stajini tasdiqlovchi “Elektron mehnat daftarchasi” tizimidan ko'chirma) (o'rindoshlik bo'yicha mehnat staji mavjud bo'lgan taqdirda bu haqda mehnat daftarchasiga yozuv kiritilgan bo'lishi lozim);

e)

- 3 x 4 hajmdagi 2 dona fotosurat;

j)

- malaka sertifikatini olish uchun eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida yig'im to'langanligi to'g'risidagi to'lov hujjati nusxasi.

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ariza tushgan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida talabgorning malaka imtihonini topshirishga ruxsat berish yoki rad etish haqida qaror qabul qiladi.


- Vazirlik quyidagi asoslarga ko‘ra malaka imtihonini topshirishga ruxsat berishni rad etadi:
- a) talabgor Nizomning **4-bandi** talablariga javob bermaganda;
- b) hujjatlarni to‘liq bo‘lmagan holda taqdim etganda.


- Talabgorni boshqa asoslarga ko‘ra malaka imtihonini topshirishni rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

- Talabgorning malaka imtihonini topshirishi rad etilgan taqdirda Vazirlik tomonidan tegishli qaror qabul qilinadi va talabgorga rad etish sabablari ko‘rsatilgan holda, qabul qilingan qaror haqida uch ish kuni ichida yozma yoki elektron shaklda xabardor qilinadi.
- Malaka imtihonini topshirishga ruxsat berish rad etilgan talabgor rad etishga sababchi bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etgandan keyingina qayta ariza berishi mumkin.

- ❑ Malaka imtihonini topshirishga ruxsat berilgan talabgorlar uni o‘tkazish sanasi, vaqti va joyi haqida malaka imtihoni o‘tkaziladigan kundan kamida o‘n kun oldin pochta yoki elektron aloqa vositalari orqali xabardor qilinadi.
- ❑ Malaka imtihonini topshirishda talabgorlar pasport yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat, ma’lumoti haqidagi hujjat va mehnat daftarchasining asl nusxalarini taqdim etadi

- Malaka imtihoni test sinovi usulida kompyuter texnikasidan foydalangan holda o'tkaziladi.

 - Test sinovi quyidagi bo'limlar bo'yicha 80 ta savoldan iborat bo'ladi:
 - moliyaviy hisob — 26 ta;
 - boshqaruv hisobi va moliyaviy tahlil — 14 ta;
 - audit — 26 ta;
 - soliq solish va tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish — 14 ta.
- 

- Talabgorga malaka imtihonini topshirish uchun to‘rt soat vaqt taqdim etiladi.
 - Talabgorning to‘g‘ri javoblar bo‘yicha yakuniy natijasi 75 foiz va undan yuqori ko‘rsatkichni tashkil qilgan bo‘lsa, u malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan hisoblanadi.
 - Malaka imtihonidan o‘ta olmagan talabgor, malaka imtihonini topshirgan sanadan kamida bir oy o‘tgandan so‘ng malaka imtihonini qayta topshirish uchun ariza taqdim qilishi mumkin.
- 

- Malaka sertifikatı mutaxassisning fotosurati yopishtirilgan maxsus blankda mazkur Nizomning **2-ilovasiga** muvofiq shaklda rasmiylashtiriladi va O‘zbekiston Respublikasi hududida yuridik kuchga ega bo‘ladi.
- Malaka sertifikatı dastlab besh yillik muddatga, talabgor malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirganda, shuningdek xalqaro buxgalter sertifikatiga ega bo‘lgan talabgorlarga malaka imtihonini topshirmasdan beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining gerbi
O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
AUDITORNING MALAKA SERTIFIKATI

Rasm
uchun joy

_____ -son

20__yil “__” _____

Auditor malaka sertifikatini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan

_____ **ga**

(kinoga — auditor malaka sertifikatini olgan shaxsning F.I.O.)

(jilmoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami)

20__yil “__” _____ dagi malaka imtixon komissiyasining qaroriga asosan auditor malaka sertifikatini 20__yil “__”
_____ dan 20__yil “__” _____ gacha muddatga berildi.

_____ M.O‘.

(vakolatli shaxsning F.I.O.) _____ (imzo)

Auditor malaka sertifikatining amal qilish muddati _____

20__yil “__” _____ dan 20__yil “__” _____ gacha uzaytirildi.

_____ M.O‘.

(vakolatli shaxsning F.I.O.) _____ (imzo)


Auditor malaka sertifikatining amal qilish muddati _____

20__yil “__” _____ dan _____ ga uzaytirildi.

_____ M.O‘.

(vakolatli shaxsning F.I.O.) _____ (imzo)



2. Auditorlik tashkiloti va auditorlarning mustaqilligi.

- ▣ Аудиторлик ташкилоти ўз фаолиятини амалга оширишда мустақилдир.
 - ▣ Аудиторлик ташкилоти вазирликлар, давлат қўмиталари, идоралар ҳамда бошқа давлат ва хўжалик бошқаруви органлари томонидан ташкил этилиши мумкин эмас.
- 

- Аудиторлик ташкилоти, башарти қуйидаги мажбурий шартларга риоя этса, қонунчиликда назарда тутилган исталган ташкилий-ҳуқуқий шаклда, бундан акциядорлик жамияти мустасно, ташкил этилиши ва ўз фаолиятини амалга ошириши мумкин:
- аудиторлик ташкилоти ўзи учун асосий иш жойи бўлган аудиторларнинг энг кам сони штатдаги камида тўрт нафар аудитордан иборат бўлади;
- аудиторлик ташкилотининг устав фонди (устав капитали) аудиторлик ташкилоти ўз фаолиятини амалга оширишда бевосита фойдаланадиган мол-мулкдан, шу жумладан пул маблағларидан шакллантирилади;
- устав фондидаги (устав капиталидаги) аудиторларга (аудиторга) тегишли бўлган улуш камида эллик бир фоизни ташкил этиши керак
- аудиторлик ташкилотига фақат ўзи учун мазкур аудиторлик ташкилоти асосий иш жойи бўлган аудитор раҳбар бўлиши керак.


**Аудиторлик ташкилотларига қуйидагиларга
нисбатан аудиторлик текширувини ўтказиш
тақиқланади:**

An empty rounded rectangular box with a double blue border, intended for text input.An empty rounded rectangular box with a double blue border, intended for text input.An empty rounded rectangular box with a double blue border, intended for text input.



- Аудиторлик ташкилоти кетма-кет етти йилдан кўпроқ айна бир хўжалик юритувчи субъектнинг аудиторлик текширувини ўтказишга ҳақли эмас.

3. Auditor axloqi (etikasi).

- Etika - shaxs yoki shaxslar guruhining ma'naviy - axloqiy hatti - harakatini belgilab beruvchi qonun-qoidalar tizimidir.
 - Auditorlik etikasining asosini mustaqillik, malaka, halollik va xolislik tamoyillari tashkil etadi.
 - Auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi tashkilotlar ham turli qonunlar, standartlar bilan bir qatorda auditorlik etikasi kodeksini ham ishlab chiqishgan.
- 

- Respublikamizda **«O'zbekiston auditorlarning kasbga oid Axloq Kodeksi»** qabul qilingan. Ushbu kodeksda auditorlar audit sohasiga nisbatan jamoat ishonchi va e'tiborini orttirish uchun o'zlarini qanday tutishlari lozimligi, o'z zimmlaridagi vazifalarni amalga oshirish jarayonida amal qilishlari lozim bo'lgan axloqiy, ma'naviy qadriyatlar, tamoyillar o'z ifodasini topgari.. Audit tekshiruvini o'tkazish jarayonida umuminsoniy qadriyatlar, tartib - qoidalarga amal qilish har bir auditor va auditorlik firmasi rahbarining zimmasidagi majburiyatdir.

□ Auditor uchun eng yuqori ahloqiy me'yor har qanday vaziyatda ham qonunni ustun qo'yish, ishonchga sazovor aniq dilillarga asoslangan auditorlik xulosasi tuzish, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni tahlil qilib, ularni tuzatish yo'llarini aniqlash, korxonada moliyaviy ahvolini yaxshilaydigan tavsiyalar berishdan iborat. Buning uchun auditorning kasb mahorati vijdon, or-nomus kabi ahloqiy fazilatlar bilan ham uyg'unlashgan bo'lmog'i lozim.

- ▣ Umumqabul qilingan axloqiy normalarga amal qilish. Auditorlar o'z zimmalaridagi vazifalarini amalga oshirish jarayonida umuminsoniy axloqiy qadriyatlar, tamoillarga amal qilgan holda, halollik bilan ish yuritishiari va qaror qabul qilishlari shart
- ▣ Jamiyat manfaatlarini ifoda etish. Garchi audit tekshiruvi uchun haqni mijoz to'lasada, auditor faqatgina jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda ish ko'rishi shart.

- Auditoming xolisligi. Tekshiruv yakunida xulosa va tavsiyalar tayyorlash uchun yagona asos - yetarli miqdordagi va ishonchli ma'lumot hisoblanadi.
- Auditoming e'tiborliligi. Professional xizmat ko'rsatish jarayonida auditor o'z ishiga yuqori darajada e'tiborlilik, ehtiyotkorlik bilan yondashishi, rejalashtirish, tekshiruv o'tkazish va xulosa tayyorlash jarayonida mavjud qonunlar va standartlarga to'liq amal qilinishini ta'minlash, tekshiruvning har bir bosqichiga nisbatan yuqori darajadagi nazoratni o'rnatishi zarur.
- Auditorning mustaqilligi. Auditor umumiy mijoz korxonaga yoki uning rahbariyatining alohida vakillari bilan auditor mustaqilligiga ta'sir o'tkazish darajasidagi yaqin munosabatlarga ega bo'lsa, bu tekshiruvni o'tkazishdan bosh tortishi lozim.